



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

### O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tizimida “Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi”ni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida, 2022-yil 4-avgustda Davlat xizmatini isloh qilish va boshqaruvda natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida o‘tkazilgan yig‘ilishning 61-sonli bayoni 11-bandida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ishlab chiqilgan “Yosh mutaxassislarni tanlashning namunaviy dasturi”ga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2022-yil 4-avgustda Davlat xizmatini isloh qilish va boshqaruvda natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida o‘tkazilgan yig‘ilishning 61-sonli bayonida belgilangan topshiriqlar ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar rahbarlari yosh mutaxassislarni tanlash dasturini belgilangan talablar asosida amalga oshirilishi va tasdiqlangan kvotaning bajarilishini ta’minlasin.

4. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (B.Xo‘jaqulov) dasturda nazarda tutilgan davlat xizmatiga eng munosib kadrlarni tanlash va istiqbolli kadrlarni tayyorlashni tizimli yo‘lga qo‘yish hamda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini davlat xizmatiga jalb qilish samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil etilishini ta’minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



B. Saidov

Toshkent sh.,

2022-yil “11”-oktyabr\*

312 -son

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirining  
2022-yil "11" oktyabr dagi  
312 -sonli buyrug'iga  
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan  
Yosh mutaxassislarni tanlash  
DASTURI**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (keyingi o'rinlarda – vazirlik) tomonidan “Yosh mutaxassislarni tanlash” namunaviy dasturi (keyingi o'rinlarda – Dastur) Oliy ta'lim muassasalarining (keyingi o'rinlarda – OTM) bitiruvchi kursida o'qiyotgan qobiliyatli yoshlarni saralab olish, ularning stajirovkasini tashkil etish va keyinchalik zaxiraga kiritish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

**Dastur maqsadi** – davlat xizmatiga eng munosib kadrlarni tanlash va istiqbolli kadrlarni tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish hamda OTM bitiruvchilarini davlat xizmatiga jalb qilish samaradorligini oshirishdan iborat.

**Dastur vazifalari:**

oliy ta'lim muassasalari hamda davlat xizmati o'rtasida integratsiyani yo'lga qo'yish;  
eng salohiyatli va bilimli bitiruvchilarni seleksiya qilish;  
nomzodlarni vazirlik, uning tizimidagi tashkilot va muassasalarga stajirovka o'tash uchun yo'naltirish hamda “ustoz-shogird an'anasi” asosida tajribali ustoz-mentorlarga birlashtirish;  
stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilarni tanlov (suhbat) asosida davlat xizmatiga ishga qabul qilish.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Dasturda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**Oliy ta'lim muassasasi** – bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlovchi davlat ta'lim muassasasi;

**bitiruvchi** – OTM kunduzgi shaklining bakalavriat bosqichi bitiruv kurs talabalari;

**stajirovka o'tash** – yosh mutaxassislarni davlat xizmatiga tayyorlash, kasbiy faoliyat ma'suliyatini his etish va tajribali mutaxassislarning ish faoliyatini o'rganish orqali OTMda olgan nazariy bilimlarini amaliy mustahkamlash jarayoni.

**malaka talablari** – ma'lum bir davlat fuqarolik lavozimiga stajyor bo'lish uchun nomzodlarga nisbatan vazirlik tomonidan belgilanadigan tegishli ma'lumot, shuningdek bilim va kasbiy kompetensiyasiga qo'yilgan talablar;

**stajirovka rahbari** – vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda stajirovka jarayonini muvofiqlashtirish mas'uliyati yuklangan rahbar xodimi.

**ustoz-mentor** – stajirovka o'tayotgan bitiruvchilarga davlat xizmatidagi faoliyatida “ustoz-shogird” an'anasi asosida zarur tashkiliy ko'rsatmalar beruvchi, ularni texnik xavfsizlik qoidalari bilan tanishtiruvchi, amaliy ko'nikma va malakalarni o'rgatuvchi, stajirovka davrida talaba egallagan ko'nikmalarni baholash yuklangan tajribali davlat fuqarolik xizmatchisi.

**shaxsiy rivojlanish rejasi** – bitiruvchining vazirlik va uning tizimida stajirovkasi davomida o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar muddatlar kesimida aks ettiriladigan hujjat.



**kadrlar zaxirasi** – vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlardagi lavozimlarni salohiyatli, yosh kadrlar bilan to‘ldirilishini ta‘minlaydigan, yuqori malakali mutaxassislar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan ma‘lumotlar bazasi.

## **2-bob. Tanlov o‘tkazish tartibi**

2. “Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi” 1-ilovadagi dasturni amalga oshirish sxemasi bo‘yicha tegishli bosqichlarda va belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

3. Vazirlikning rasmiy sahifalarida “Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi” bo‘yicha stajirovka tanlovi haqida e‘lon beriladi va targ‘ibot tashviqot ishlari amalga oshiriladi.

4. Nomzodlardan stajirovka tanlovida ishtirok etish uchun arizalar qabul qilinadi.

Arizalarni qabul qilish onlayn shaklda (telegram bot orqali) ham amalga oshirilishi mumkin. Texnik talablarga muvofiq ariza egalariga saralash bosqichida ishtirok etishga yo‘llanma yuboriladi.

5. Nomzodlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, davlat fuqarolik xizmati va korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonunchilik, davlat tili, axborot texnologiyalari bo‘yicha bilim darajasini aniqlash uchun vazirlik tomonidan tashkil etiladigan sinovdan (test yoki suhbat) o‘tadilar.

6. Saralash jarayonlari vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar bilan hamkorlik qilayotgan OTMLar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

7. Saralash bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar (*71 foizdan yuqori*) vazirlik tomonidan suhbatdan o‘tkaziladi.

8. Nomzodlar ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq jadval bo‘yicha baholanadi. Baholash natijalariga ko‘ra, sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlarni stajirovkaga qabul qilish haqida vazirlikning buyrug‘i chiqariladi.

9. Stajirovka jarayonini namunali yakunlagan yosh mutaxassislar stajirovka o‘tgan tashkilotning kadrlar zaxirasiga kiritiladi.

## **3-bob. Stajirovkani tashkil etish qoidalari**

10. Stajirovka tanlovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan bitiruvchi bilan 3-ilovaga muvofiq tuziladigan stajirovka shartnomasi asosida tashkil qilinadi.

11. Mazur shartnomada stajirovkani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha shartnoma predmeti, taraflarning huquq va majburiyatlari, qabul qiluvchi tashkilotning ish faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda stajirovkani o‘tash tartibi, shartnomaning amal qilish muddati va bekor qilish asoslari, shuningdek, taraflarning javobgarligiga oid normalar nazarda tutiladi.

12. Stajirovka uch oydan kam bo‘lmagan hamda bir yildan ko‘p bo‘lmagan muddatda amalga oshirilishi lozim.

13. **Yoshlar ishlari agentligi** Yosh mutaxassislarni tanlash dasturini amalga oshirish jarayonlarini muvofiqlashtiradi. Stajirovkani tashkil etishning zarur tashkiliy-huquqiy choralarini ko‘radi. Xususan:

vazirlikka namunaviy dastur va ilova hujjatlarni taqdim etadi;

vazirlik namunaviy dastur asosida o‘z dasturlarini ishlab chiqishi va tanlov e‘lon qilishini nazorat qiladi;

tanlov jarayonlarini belgilangan mezonlar asosida shaffof va adolatli o‘tishini ta‘minlaydi; stajirovkaga jalb qilingan talabalar ma‘lumotlarini umumlashtiradi;



stajirovka yakunlari bo'yicha hisobot (taqdimot) jarayonlarida ishtirok etadi;  
dasturni amalga oshirish sxemasi bo'yicha barcha bosqichlardagi chora-tadbirlarni muvofiqlashtiradi;

stajirovka o'tashda yoshlar huquq va manfaatlarini ta'minlash yuzasidan monitoringni amalga oshiradi;

stajirovka yakunlari bo'yicha davlat organlarining hisobot va takliflarini umumlashtiradi.

**14. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda** stajirovkani tashkil etishning zarur tashkiliy-huquqiy choralari ko'radi. Xususan:

sinov jarayonlarini adolatli va shaffof tarzda tashkil etadi;

malakali va tajribali mutaxassislar orasidan stajyor bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan stajirovka rahbari va ustoz-mentorni tayinlaydi;

bitiruvchilarni stajirovka davrida o'z xodimi sifatida faoliyat qilib borishi uchun tashkilot rahbarining buyrug'ini chiqaradi;

stajirovka dasturiga muvofiq bitiruvchilarga joriy qilinadigan shart-sharoitlar (shaxsiy himoya, moddiy-texnika vositalari boshqalar)ni yaratadi;

stajyorlarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa hujjatlardan foydalanish imkoniyatlarini beradi;

tashkilotning ichki mehnat intizomini buzgan stajyor bilan tuzilgan stajirovka shartnomasini belgilangan tartibda bekor qiladi;

bitiruvchi stajirovkani o'tash davrida davlat organida baxtsiz hodisaga uchragan holatlar bo'yicha javobgarlik masalalarini qonunchilik hujjatlari asosida ko'rib chiqadi;

**15. Davlat fuqarolik xizmatidagi stajirovka rahbari** vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda stajirovka o'tayotgan barcha bitiruvchilarga rahbarlik qiladi. Uning vazifalari:

davlat fuqarolik xizmati tashkilotning tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'limlari bo'yicha talabalarni taqsimlaydi, obyektning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;

stajyor bilan stajirovka o'tash shartnomasini imzolaydi;

stajyorlar bilan tashkilot rahbarlari va yetakchi xodimlarning uchrashuvini tashkil etadi.

**16. Ustoz-mentor** sifatida davlat xizmatida kamida uch yillik tajribaga ega, mehnat jamoasida obro'-e'tiborli davlat xizmatchisi "ustoz-shogird" an'anasi asosida ko'pi bilan ikki nafar bitiruvchiga birlashtirilishi mumkin. Uning vazifalari:

stajyorlarga ish faoliyati va texnika xavfsizligi bo'yicha tushuntirish, shuningdek qabul qiluvchi tashkilotning ichki tartib qoidalari va ish rejimining xususiyatlari bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi;

stajirovka dasturiga taalluqli materiallardan foydalanish tartib-qoidalarini o'rgatadi;

stajyor ish kunining belgilangan davomiyligiga va stajorning shaxsiy ish rejasiga rioya etilishini nazorat qiladi;

**17. Stajyor vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda stajirovka o'tashda:**

stajirovka bo'yicha uslubiy va ko'rsatma materiallar bilan tanishishi;

stajirovka shartnomasi bilan yuklatilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish;

stajorning shaxsiy ish-rejasida nazarda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda, to'liq hajmda va sifatli bajarishi;

stajirovka o'tash to'g'risidagi hisobotni taqdim qilishi;

faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan materiallar to'plamini shakllantirishi;

qabul qiluvchi tashkilotning ichki mehnat tartib qoidalari va xodimlari faoliyatining tartibini belgilovchi hujjatlarga rioya qilishi shart.

#### **4-bob. Stajirovkani o'tash tartibi**

18. Stajirovka uch bosqichga bo'linadi:

tayyorlov;

asosiy;

hisobotlarni topshirish va baholash.

19. Stajirovka tayyorlov bosqichining birinchi kunida davlat fuqarolik xizmatidagi stajirovka rahbari tomonidan yig'ilish o'tkaziladi. Yig'ilishda talabalar stajirovkani o'tash dasturi bilan tanishadilar, uning maqsad va vazifalariga taalluqli ko'rsatmalar, stajirovkani o'tash va 4-ilovadagi hisobot shaklini to'ldirish tartibi haqida xabardor qilinadilar.

20. Stajirovka o'tashning boshida talabalar qabul qiluvchi tashkilotning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari, o'ziga xosligi bilan tanishadilar hamda stajirovka rahbari va birlashtirilgan ustoz-mentor bilan birgalikda stajirovkani o'tash dasturini bajarish bo'yicha 5-ilovaga muvofiq, shaxsiy ish reja jadvalini tuzadilar.

21. Stajirovkaning asosiy bosqichida bitiruvchi bevosita stajirovkani o'tash dasturini bajarish bo'yicha Shaxsiy ish rejada ko'rsatib o'tilgan ishlarni bajaradi.

22. Stajirovka yakunlari bo'yicha hisobotni topshirish so'nggi bosqich hisoblanadi. Belgilangan tartibdagi hisobot-taqdimot stajirovka rahbari, ustoz-mentor va Yoshlar ishlari agentligi vakili tomonidan baholanib tasdiqlanadi.

23. Stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilar davlat organlari hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 6-ilova asosida tasdiqlangan sertifikat bilan taqdirlanadi. Mazkur sertifikat asosida bitiruvchilarni davlat xizmatiga ishga qabul qilishda imtiyoz nazarda tutiladi.

#### **5-bob. Davlat xizmatiga ishga qabul qilish**

24. Dastur asosida Stajirovkani muvaffaqiyatli tamomlagan, sertifikatga ega bitiruvchilar vazirlikdagi maxsus komissiya tomonidan o'tkaziladigan suhbat asosida oltinchi darjali davlat xizmatchilari (mutaxassis) vakant lavozimiga ishga qabul qilinishi mumkin.

#### **6-bob. Yakuniy qoida**

25. Mazkur Dastur bo'yicha yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.



**Yosh mutaxassislarni tanlash dasturini amalga oshirish  
SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Ijro etuvchi apparat, Vazirlikning hududiy bo'linmalari va respublika tashkilotlari	Stajyorlarni jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlar (moddiy texnika)ni yaratish	Oktabr
2-bosqich	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi, Vazirlikning hududiy bo'linmalari va respublika tashkilotlari	Dastur doirasida integratsiya qiladigan OTMlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish	Oktabr
3-bosqich	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi, tegishli tarkibiy bo'linmalar, Vazirlikning hududiy bo'linmalari va respublika tashkilotlari	Rasmiy veb-saytlar, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda "Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi" bo'yicha tanlov e'lon qilish hamda targ'ibotini tashkil qilish	Oktabr oyining 2-yarmi
4-bosqich	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi, Vazirlikning hududiy bo'linmalari va respublika tashkilotlari	"Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi" bo'yicha e'lon qilingan tanlov bo'yicha kelib tushgan hujjatlarni qabul qilish	Noyabr oyining 1-yarmi
5-bosqich	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi, tegishli tarkibiy bo'linmalar, Vazirlikning hududiy bo'linmalari va respublika tashkilotlari	Nomzodlarning bilim darajasini aniqlash uchun sinovdan o'tkazish	Kelishuvga ko'ra (noyabr oyining 2-yarmi)

6-bosqich	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi, Vazirlikning hududiy bo'limlari va respublika tashkilotlari	Sinodan muvaffaqiyatli (71 foizdan yuqori) o'tgan bitiruvchilar ro'yxatini shakllantirish	Noyabr oyining 2-yarmi
7-bosqich	Biriktirilgan tarkibiy bo'limlar, Vazirlikning hududiy bo'limlari va respublika tashkilotlari oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda	Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarni stajirovkaga jalb etish, ustoz-mentor biriktirish, Stajirovka o'tash shartnomasi va Shaxsiy rivojlanish rejasini imzolash	Dekabr
8-bosqich	Biriktirilgan tarkibiy bo'limlar, Vazirlikning hududiy bo'limlari va respublika tashkilotlari oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda	Ustoz-mentor tomonidan stajyor faoliyatini kuzatib borish asosida uning bilimi, ko'nikmalari va amaliy tajribasi oshishiga ko'maklashish	Dekabr-iyul
9-bosqich	Biriktirilgan tarkibiy bo'limlar, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda	Stajirovka faoliyati yakunlari bo'yicha stajyor taqdimotini baholash va muvaffaqiyatli tamomlagan stajyorlarga sertifikat berish	Iyul
10-bosqich	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi, Vazirlikning hududiy bo'limlari va respublika tashkilotlari Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan birgalikda	Sertifikatga ega bitiruvchilar orasidan tanlov (suhbat) asosida ishga qabul qilish	Avqust
11-bosqich	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi, Biriktirilgan tarkibiy bo'limlar, Vazirlikning hududiy bo'limlari va respublika tashkilotlari	Stajirovka yakunlari va davlat xizmatiga qabul natijalari bo'yicha "Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi"ni takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflarni shakllantirish	Avqust

Yosh mutaxassislarni  
tanlash dasturiga  
2-ILOVA

Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi bo'yicha nomzodlar ko'rsatkichlarini baholash

JADVALI

№	FISH	Oliy ta'lim muassasasi	Mutaxassislik	Kursi	Reyting bahosi 20 ball	Test 40	Suhbat 30 ball	Til sertifikatiga egalik 10 ball	JAMI
1.	Erkinov Rashid Jamol o'g'li	Toshkent davlat pedagogika universiteti	tarix	4	17,4	25	25	10	77,4
2.	.....	.....	.....	....	...				

**Izoh:**

“Fanlarni baholash” so'nggi semestr natijalariga ko'ra fanlardan olingan baholari 20 balldan foiz olish bilan hisoblanadi. (masalan, o'rtacha reyting ko'rsatkichi **87 bo'lsa.  $20 \times 0.87 = 17.4$** )



**Stajirovka o'tash to'g'risida  
SHARTNOMA**

Toshkent shahri

2022-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_

(*Davlat organi nomi*) nomidan (*tashkilot rahbari*) (keyingi o'rinlarda "Davlat organi" deb ataladi) bir tomondan va fuqaro \_\_\_\_\_ (pasport seriyasi va raqami: AA\_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ tomonidan \_\_\_\_\_ yilda berilgan) (keyingi o'rinlarda "Stajyor" deb ataladi) ikkinchi tomondan, vazirlik va idoralar hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida yosh mutaxassisning stajirovka o'tashiga doir mazkur shartnomani tuzib imzoladilar.

1. "Stajyor" (*Davlat organi nomi*)da \_\_\_\_\_ vazifalarni bajaradi.

2. Taraflar o'rtasidagi munosabatlarga (vazirlik, idora, tashkilot) rahbarining 20\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_-son buyrug'i talablari tatbiq etiladi.

**3. "Stajyor"ning majburiyatlari:**

stajirovka bo'yicha uslubiy va ko'rsatma materiallar bilan tanishish;  
stajirovkani tashkil etish va undan o'tish bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etish;  
stajirovkadan o'tish dasturida nazarda tutilgan barcha tadbirlarni stajirovka uchun belgilangan muddat ichida, to'liq hajmda va sifatli bajarish;  
stajirovka o'tash to'g'risidagi hisobotni taqdim qilish;  
faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan materiallar to'plamini shakllantirish;  
tashkilotning ichki mehnat tartib qoidalari va xodimlar faoliyatining tartibini belgilovchi hujjatlarga rioya qilish;  
mazkur shartnomaning 1-bandida belgilangan vazifalarni bajarganligi to'g'risida har oy yakuni bo'yicha dalolatnomani taqdim etish.

"Davlat organi"ning ushbu shartnomadan kelib chiqadigan boshqa topshiriqlarini ham bajaradi.

**4. "Davlat organi"ning majburiyatlari:**

mazkur shartnoma shartlariga, shuningdek, fuqarolik qonunchilik normalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya qilish;  
stajirovka jarayonlarini adolatli va shaffof tarzda tashkil etish;  
malakali va tajribali mutaxassislar orasidan stajyor bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan stajirovka rahbari va ustoz-mentorni tayinlash;  
stajyorlar uchun ish joyi va stajirovka davrida foydalanish uchun zaruriy materiallar (shaxsiy himoya, moddiy-texnika vositalari va boshqalar) ajratilishini tashkil etish;  
stajyorlarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa hujjatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

stajyorning faoliyati natijadorligiga asosan unga oylik maosh to'lash;

har oy yakuni bo'yicha "Stajyor" tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ishlar haqidagi dalolatnomani o'rganish, "Stajyor" tomonidan bajarilgan ishlar tasdiqlanganda stajyorga ushbu shartnomada belgilangan miqdorda haq to'lash.

5. Tomonlarning kelishuviga asosan "Stajyor" tomonidan bajarilgan ish xajmi uchun har oy \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) so'm to'lov to'lanadi. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushbu summadan ushlab qolinadi va soliq organlariga o'tkaziladi.

6. "Stajyor" tomonidan har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 3-sanasi qadar "Davlat organi"ga bajarilgan ishlar hisoboti (dalolatnomasi) taqdim etiladi.

"Davlat organi"ga ushbu ishlar hisoboti dalolatnomasini qabul qilgan paytdan boshlab 3 ish kuni davomida tekshirib, taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqatda bajarilgan taqdirda dalolatnomani imzolaydi va 3 ish kuni davomida mazkur shartnomaning 5-bandida nazarda tutilgan miqdorda "Stajyor"ga haq to'laydi.

Bunda, ushbu to'lov "Stajyor" tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan oyda ikki marta amalga oshirilishi mumkin.

7. Tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra mazkur shartnoma shartlariga kiritiladigan barcha qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma shaklda amalga oshiriladi.

8. Ushbu shartnoma 20\_\_ yil \_\_\_\_\_ dan boshlab kuchga kiradi va 20\_\_ yil \_\_\_\_\_ ga qadar amal qiladi.

9. Mazkur shartnoma taraflarning kelishuviga asosan yoki bir tarafning istagi asosida ikkinchi tarafni kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin.

Bunda shartnoma bekor qilingan paytdan boshlab 5 ish kunida taraflar o'rtasida barcha hisob-kitoblar amalga oshiriladi, mazkur shartnoma Ijrochi tomonidan o'z zimmasidagi vazifalarni bajarmaganligi tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno.

**Xalq ta'limi vazirligi**

**STAJYOR**

**Manzili:**

Toshkent shahri,  
Shayxontohur tumani,  
Navoiy ko'chasi,  
2 a-uy

\_\_\_\_\_ **B.Saidov**

\_\_\_\_\_  
F.I.O.

Pasport ma'lumotlari:

\_\_\_\_\_  
Yashash manzili:

\_\_\_\_\_  
F.I.O.



\_\_\_\_\_ ning  
(stajerning FIO)  
**“Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi” doirasida  
Xalq ta’limi vazirligi (tizim tashkilotlari)da stajirovka  
davomida bajargan ishlari yuzasidan  
XISOBOT**

T/r	Chora-tadbir nomi	Bajarilgan ishing mazmuni
1.		
2.		
3.		
...		
...		

**Stajyor**

\_\_\_\_\_

**Ustoz-mentor**

\_\_\_\_\_


**Stajirovka rahbari**

\_\_\_\_\_





## Namunaviy sertifikat loyihasi

 YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI	 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
<h1>SERTIFIKAT</h1> <p>BILAN TAQDIRLANADI</p>	
SERTIFIKAT RAQAMI: 001	
NAMUNAVIY	
<p>O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligida <b>"Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi"</b>ni muvaffaqiyatli tamomladi</p>	
<hr/> <p><b>Alisher Sa'dullayev</b> O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori</p>	<hr/> <p><b>Baxtiyor Saidov</b> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri</p>

**Yosh mutaxassislarni tanlash dasturini amalga oshirish bo'yicha  
KVOTA**

<b>T/r</b>	<b>Davlat organlari va tashkilotlarining nomlanishi</b>	<b>Stajerlar kvotasi</b>
1.	O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi	1
2.	A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti	1
3.	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti	1
4.	Respublika ta'lim markazi	1
5.	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi	1
6.	Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi	1
7.	Respublika bolalar kutubxonasi	1
8.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi	1
9.	Andijon viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	1
10.	Buxoro viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	1
11.	Jizzax viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	1
12.	Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	1
13.	Navoiy viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	1
14.	Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	1
15.	Samarqand viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	1
16.	Sirdaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	1
17.	Surxondaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	1
18.	Toshkent viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	1
19.	Farg'ona viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	1
20.	Xorazm viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	1
21.	Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmasi	1